

## GINGIVIT VA STOMATIT KASALLIKLARINING SABABLAR, BELGILARI VA DAVOLASH USULLARI

**Mahmudova Gulsanam Jasur qizi**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali  
Pediatriya fakulteti Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

[gulsanammaxmudova906@mail.com](mailto:gulsanammaxmudova906@mail.com)

**Hasanov Dilmurod Abduvahob o'g'li**

Anatomiya va klinik anatomiya kafedra assistenti

[dilmurodhasanov1995@gmail.com](mailto:dilmurodhasanov1995@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson og'iz bo'shlig'ida keng tarqalgan kasalliklari - gingivit va stomatit kasalliklarini sabablari, belgilari va davolash usullari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur kasalliklarning profilaktik choralari va og'iz gigiyenasining inson turmush tarzidagi ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Og'iz kasalliklari bugungi kunda mamlakatimiz aholisi o'rtasida ko'p uchramoqda kasallik ikki uch oylik chaqaloqlardan tortib katta yoshli insonlar o'rtasida ham keng yoyilmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri noto'g'ri ovqatlanish rejimi, gigiyena qoidalariga amal qilmaslik yana bir asosiy sabab ekologiyaning ifloslanishi natijasida oziq – ovqat mahsulotlari va ichimlik suvining tarkibining buzilishi kabi omillar ham sabab bo'lmoqda undan tashqari tamaki, alkohol mahsulotlarini haddan tashqari ko'p iste'mol qilish natijasida og'iz bo'shlig'I kasalligi hattoki o'lim holatigacha olib bormoqda.

**Kalit so'zlar:** gingivit, stomatit, gigiyena, profilaktik, alkohol, tamaki

**Kirish: Gingivit kasalliklari sabablari va profilaktikasi :** Gingivit kasalligi – bu tish milklarining yallig'lanish kasalligi hisoblanadi. Ushbu kasallikda asosan og'iz gigiyenasiga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadigan kasallik hisoblanadi. Kasallikning belgilariga keladigan bo'lsak kasallikda milk qizaradi, shishadi, sezuvchanlik darajasi oshadi, tishni yuvayotgan vaqtda qonashi va shuningdek og'iz hidlanishi mumkin. Gingivit ko'pincha muzdek suv, muzqaymoq va shu kabi sovuq mahsulotlar, mikroblar, vitamin yetishmovchiligi, tamaki mahsulotlarini muntazam iste'mol qilish ( sigaret, nos ) va ichki kasalliklar shuningdek organizmda sodir bo'layotgan kimyoviy jarayonlar izchilligi bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin . Gingivit kasalligi vaqtida davolanmasa og'irroq kasallik - periodontitga yuzaga kelishi mumkin. Kasallikni og'ir holatda davolagandan ko'ra uning profilaktikasini qilish lozim va zarur. Agarda tishlarni doimiy toza holatda saqlash, tuzli suv bilan chayish va tuzli suv

yordamida massaj qilish shuningdek, shifokor ko'rigidan muntazam ravishda o'tib turish tavsiya etiladi. Sovuq havoda tishlarning sezuvchanligi ortadi va tishlarga kirib brogan sovuq havo ularni mo'rt va zaiflashtirib qo'yadi. Afsuski aholimiz og'iz kasalliklariga be'tibor bo'lishi va vaqtida profilaktika qilmasligi natijasida ichki kasalliklar ham og'iz bo'shlig'idagi shu kabi kasalliklarga sabab bo'lmoqda. Misol uchun, og'iz bo'shlig'iga o't suyuqligi chiqib og'izga tahir hidi bilan og'izga achchiq suyuqlik kelib namoyon bo'ladi

**Asosiy qism: Stomatit kasalligi davolash choralari:** Stomatit kasalligi – bu og'izning shilliq qavati yallig'lanishi bo'lib og'iz ichida oqimtir, suvli yaralarning chiqishi va ovqatlanish vaqtida og'riq hissini keltirib chiqadigan yara turi hisoblanadi. Kasallikning kelib chiqish sabablari yosh bolalar o'rtasida kir qo'llar, toza bo'lmagan o'yinchoqlar, ona suti tarkibidagi bola organizimi uchun kerak bo'lmagan mikroblar va shu qatorda gigiyena qoidalari bilan mos ravishda bog'liq bo'ladi. Stomatit kasalligini xavfsiz va profilaktik chorasi sifatida davolash uchun bir paket ramashka qaynoq suvga yarim soatga ivitib qo'yamiz. Undan so'ng yallig'lanish bartaraf etish va turli xil mikroblarni o'ldirish uchun furatsilin va mitranidazol tabletkalaridan bitta donadan maydalabv eritmaga solinadi. Achchiqligini yo'qotish uchun bitta ampula lidokain solinadi. So'ngra bu tayyorlangan eritmaga bir necha bo'lak paxta solinadi va shu paxta bilan og'izni yallig'langan joylari va shuningdek og'izning butun qismi artiladi va so'ngra oxirgi jarayon artib bo'lingan og'izga striptatsit va nistatin tabletkalari maydalanib sepib qo'yiladi. Og'izni ertalab va kechuqurun ovqatlanishdan oldin qilish tavsiya etiladi aks holda ovqatdan keyin qilgan hollarda bolalar og'zi chayilayotgan vaqtda qayt qilishi ham kuzatiladi . Bu jarayonlarni qilib bo'lgandan so'ng bir soat davomida ovqat va yarim soat davomida suv ichish mumkin emas.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki og'iz bo'shligi kasalliklarining asosiy sabablari noto'g'ri ovqatlanish va gigiyena qoidalariga amal qilmaslikdan kelib chiqadi. Har ikkala kasallik ham dastlab yengil kechishi mumkin, ammo vaqtida davolanmasa og'iz bo'shlig'idagi jiddiy kasalliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun og'iz gigiyenasiga amal qilish, vitaminlarga boy ovqatlar iste'mol qilish va stomatology ko'rigidan o'tib turishi muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov.A „Atlas Odam anatomiyasi”
2. Karshiev X .K „Yuz-jag' soha jarohatlari va ularning asoratlari”
3. Bekjonova.Ye „ Klinik restavratsion stomatogiya”
4. Miryoqubov. M „, Ortopedik stomatologiya”